TERMINLARNING MUROJAAT BIRLIKLARI SIFATIDAGI LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Jamoliddinova Dilnoza Mirxojiddinovna
Qo‘qon DPI professori,f.f.d

Ma’lumki, og‘zaki va yozma muloqot jarayonida turli leksik vositalar bilan ifodalangan xilma-xil murojaat birliklari qo‘llaniladi. Ayniqsa, o‘zbekona lutf va hurmat ma’nosining eng oliy namunasini ko‘rsatish maqsadida ijodkorlar maxsus leksikadan murojaat birliklari sifatida foydalanishadi. Natijada lingvopoetik maqsad hosilasiga aylangan bunday birlik o‘zida lingvomadaniy xususiyatlarni ham namoyon qiladi. Badiiy asardan olingan quyidagi parcha fikrimizni isbotlaydi:

U yoqda bo‘sh vaqt ko‘p bo‘larmish-ku. Shudgor tashvishi bo‘lmasa, o‘g‘it deb, balo deb chopmasangiz.... A, domla, nima dedingiz? (E.A’zam. “Jannat o‘zi qayerda”).[1]

Asar qahramoni rais buvaning nutqida qo‘llangan domla so‘zi nashriyotda ishlovchi noshirga nisbatan ishlatilgan. Ushbu so‘z orqali yozuvchi o‘zbek nutqiy muloqot madaniyatini namoyish qilishga harakat qilgan. Ya’ni bu so‘zni murojaat birligi sifatida qo‘llash faqat o‘zbek xalqiga xos ekanligini, qadimdan o‘zbeklarda bilimdon, aqlli insonlar ulug‘lanib, ularga nisbatan hurmat ma’nosida shu so‘z ishlatilganligini ko‘rsatishni maqsad qilgan. Asarning juda ko‘p o‘rinlarida domla so‘zi faqat o‘qimishli insonlarga nisbatan emas, balki mahallada o‘zining halolligi, mehnatkashligi bilan barchaning hurmatini qozongan insonlarga nisbatan ham ishlatilganligini kuzatdik. [2]

Shu bilan bir qatorda, domla termini e undov so‘zi bilan birga undalma bo‘lib kelganda murojaat qilinayotgan shaxsga nisbatan birmuncha hurmatsizlik, mensimaslik, ijtimoiy maqomini o‘zidan pastroq qo‘yish kabi ifodalarda namoyon bo‘ladi. Masalan: – E, domla, hokim-hokimda... (Sh.Xolmirzaev. “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi”) “E, domla, ko‘tarib yurasizmi, Toshkentimizdan topilar!” deb javrashimga qaramay, kamoli ixlos bilan sotib oldi o‘shalarni. (E. A’zam. “Shovqin”) Tursuniy (shirakayfroq). E, domla, uni-buni qo‘yib, to‘yni boshlayveraylik! Boya ukamizni izza qilayotuvdingiz, mana – kelin o‘z oyog‘i bilan kepti! Malades Melisvoy! Gorьko! (E. A’zam. “Jannat o‘zi qaydadir”)

Til sohiblari nutqida bu kabi munosabatning paydo bo‘lishi domlalik qiladigan kishilarning tabiatan soddaligi (doimiy bolalar bilan munosabatda bo‘lganligi sababli

[1] Dilnoza, Djamoliddinova. "Comments on Studying Linguopoetic Properties of Terms in a Textual Aspect." *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies* 7.5 (2018): 37-44.

[2] Mikhojiddinovna, Jamolitdinova Dilnoza. "The history of the study of terminology in Uzbek linguistics." *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies* 8.8 (2019): 50-56.

o‘qituvchilarda shunday xarakter – bolalardek soddalik, ma’sumlik, suhbatdoshni ko‘proq eshitish, gapini ma’qullash, rag‘batlantirib turish kabi sifatlar shakllanadi) sabab bo‘ladi.[3] Domla terminining semantikasi bilan bog‘liq mazkur holat o‘zbek lingvomadaniyatida avvaldan mavjud bo‘lmay, o‘zbek so‘zlashuv nutqining keyingi davrlarida paydo bo‘lgan va nutqiy odat sifatida barqarorlashib qolgan. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va Oybek asarlarini sidirg‘asiga kuzatish natijasida ham domla terminining semantikasidagi keyingi o‘zgarishlar namoyon bo‘lgan qo‘llanilishlar uchramadi. Ushbu adiblarning asarlarida domla termini hurmatga, ehtiromga ega shaxslar sifatida tavsiflangan yoki termin ishlatilgan badiiy matnlardan kamida neytral munosabat ifodasi sezilib turadi. Ya’ni XX asr boshlari hamda undan keyingi davr lingvomadaniyatida domla termini shunday munosabat ifodasi sifatida o‘rinlashgan bo‘lgan. Demak, vaqt o‘tishi bilan o‘zbek xalqiga xos olamning lisoniy manzarasida domla termini bilan bog‘liq konnotasiyalarga o‘zgarish yuz bergan hamda ayni konnotativ o‘zgarish hozirgi o‘zbek adabiy tilida ifoda topmoqda.[4] Ta’kidlash lozimki, domla termini bilan bog‘liq ijobiy konnotasiya – ayni terminning XX asr boshlaridagi, undan keyin ham mavjud bo‘lgan munosabat hozirgi o‘zbek lingvomadaniyatida ustoz terminida voqelanmoqda. Lingvomadaniyatdagi bu kabi konnotativ o‘zgarishlar shubhasiz, o‘zbek xalqining olamning konseptual manzarasidagi o‘zgarishlarning natijasi hisoblanadi: avval olamning konseptual manzarasida o‘zgarish bo‘ladi, keyin bu yangilanish olamning lisoniy manzarasiga ko‘chadi va tilda voqelanadi. Ana shu mulohazalar asoslanib aytish mumkinki, keltirilgan badiiy parchalarda ushbu termin lingvomadaniy birlik vazifasini bajarib, o‘zbek xalqi mentaliteti, madaniyatining o‘ziga xos nozik qirralarini ochib berish vazifasini o‘tagan. [5]

Xullas, til tizimi birliklari, shu jumladan, terminlar ham xalq madaniyati, mentaliteti, milliy ongi bilan bog‘liq holda tadqiq etilgandagina uning tavsifi mukammal bo‘la oladi. Rus tilshunosi V.A.Maslova ham muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulьturologik xususiyatlari alohida o‘rganilishi lozim ekanligini ta’kidlaydi . [6]Ana shu jihat, ya’ni til va milliy-madaniy jipslik lingvokulьturologik tadqiqotlarning markazida turadi. Albatta, tildagi aksar birliklar u yoki bu darajada milliy-madaniy jihatlarni namoyon etadi, ammo shunday til birliklari ham borki, ular milliy-madaniy o‘ziga xosliklarning benihoya betakror timsolidir. Shu ma’noda

[3] Mikhojiddinovna, J. D. "THE HISTORY OF THE STUDY OF TERMINOLOGY IN UZBEK LINGUISTICS. ANGLISTICUM." *Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies* 8.8 (2019): 50-56.

[4] Mikhojiddinovna, J. D. "THE HISTORY OF THE STUDY OF TERMINOLOGY IN UZBEK LINGUISTICS. ANGLISTICUM." *Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies* 8.8 (2019): 50-56.

[5] Jamoliddinova, D. M. "Semantic-grammatical and lingvopoetic features of parentheses units in artistic speech." *Tashkent: Fan* (2011): 93.

[6] Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С.18.

frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarnng aniq ifodasidir .[7]

[7] Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. – Тошкент, 1996. – Б. 2.